

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI



Ro'yxatga olindi:  
№ MD-5A112001-2.05  
“ ” 2019 yil

Samarqand davlat universiteti  
Rectori:  
R.I.Xalmuradov

MUTAXASSISLIK FANLARINI O'QITISH METODIKASI  
fanining

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar
Ta'lif sohasi:	110000 – Pedagogika
Magistratura mutaxassisligi:	SA112001 – Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi

Samarqand – 2019

Fanning o'quv dasturi Samarqand davlat universiteti Jismoniy madaniyat fakulteti kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2019 yil "27"  
05 dagi "10" sonli bayonnomasi).

Fakultet dekanini

dots.B.B.Kipchakov

Fan dasturi Samarqand davlat universitetida ishlab chiqildi.

**Tuzuvchi:**

Z.B.Boltayev - Samarqand davlat universiteti Sport turlarini o'qitish metodikasi kafedrasi pedagogika fanlar nomzodi, professor v.b.

**Taqrizchilar:**

B.T. Haydarov - SamDU Maktabgacha ta'lif fakulteti dekanı  
pedagogika fanlar nomzodi, professor

J.E.Eshnazarov - SamDU Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi kafedrasi mudiri pedagogika fanlar nomzodi, professor

Fanning dasturi Samarqand davlat universiteti o'quv uslubiy kengashining 2019-yil "03" 08 dagi "10"-son majlis bayoni bilan ma'qullangan.

O'quv uslubiy Kengash raisi:

prof.A.S.Soleev

## O‘quv fanining dolzarbliji va oliy kasbiy ta’limdagi o‘rni

“Mutaxassislik fanlarini o`qitish metodikasi” bakalavriat bosqichida o`qitilgan 3-blok mutaxassislik fanlarining o`ziga xos davomi sifatida qaraladi. Mazkur fanni eshitgan har bir magistr o`qitish (ta`lim va tarbiya) nazariyasi va metodikasi bilan bog`liq bo`lgan yangi talablar mazmunidan xabardor bo`lish va kasbiy faoliyatida qo`llashlari nazarda tutiladi. O`zbekiston Respublikasining jismoniy tarbiya va sport sohasida, shuningdek ta`lim sohasida olib borilayotgan islohatlarning amaldagi tadbig`iga ko`ra “Mutaxassislik fanlarini o`qitish metodikasi” o`quv fani ham o`zining mazmuni va mohiyati jihatidan jismoniy madaniyat yo`nalishi magistrlarini tayyorlash jarayonida muhim o`rin egallaydi. Ta`lim davlat siyosati darajasiga ko`tarilgan bir sharoitda magistrlarni “Mutaxassislik fanlarini o`qitish metodikasi” fanini zamonaviy qirralaridan xabardor qilish mazkur fanning asosiy mazmuni bo`lib hisoblanadi.

### Fanning maqsadi va vazifalari.

**Fanni o`qitishdan maqsad:** Mutaxassislik fanlarini o`qitish metodikasi fanini o`qitishdan maqsad – magistrlarda bo`lajak jismoniy madaniyat o`qituvchisiga kasbiy bilim, ko`nikma va malakalarga ega qilish. O`zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va bolalar sporti tizimini bo`lajak jismoniy tarbiya o`qituvchilarining bilimlarini rivojlantirishni shakllantirish.Uzluksiz ta`lim tizimining barcha bosqichlariga bevosita aloqador bo`lgan uslubiy jihatlardagi yangilik va muammolarni o`rganish. Mutaxassislik fanlarini o`qitish metodikasi fanini va boshqa o`zaro a`loqador fanlarni o`qitish metodikasi doir o`quv materiallar bilan uyg`unlikda o`rgatish. Magistrlarni fan mutaxassisi sifatida shakllantirishda milliylik, tarixiylik, raqobatbardoshlik, zamonaviylik, izchillik, motivatsiya, amaliylik hamda novatorlik kabi sifatlarni ko`zda tutgan holda ta`lim-tarbiya berish. Mutaxassislik fanlarini o`qitish metodikasi fanini o`rganish natijasida, bo`lajak o`qituvchi sport turlarini o`qitish nazariyasi va amaliyotining murakkab tomonlarini o`rganishlari, ularni ko`pgina faktorlariga bog`lashlari hamda o`qitish va mashq jarayonida uzluksizligini o`zgarishini aniqlab olishlari zarur. Shu asosda ular o`rganuvchilar bilan olib boriladigan amaliy mashg`ulotlar davrida va ilmiy izlanishlarda professional pedagogik malakalarni egallab olishlari lozim.

**Fanning vazifasi:** Mutaxassislik fanlarini o`qitish metodikasi fanining asosiy maqsadiga erishishda quyidagi vazifalarini amalga oshirish kerak bo`ladi:

- kasbiy ta`limning vazifalarini asoslash, uning ta`limiy va tarbiyaviy ahamiyatini ochib berish;
- talabalarda o`quv materialini mazmunini asoslash bo`yicha bilim va ko`nikmalarni shakllantirish;
- kasbiy ta`lim jarayonini tashkil etishning shakl va metodlarini asoslash.
- bo`lajak mutaxassislarda kasbiy bilimlarni shakllantirishning pedagogik va axborot texnologiyasini asoslash;

- Mutaxassislik fanlarini o`qitish metodikasining taraqqiyot tendentsiyasi (jihat), uning bugungi kundagi holati, izlanish metodlari, yangilanish sabablari, shuningdek o`quv adabiyotlar bilan tanishtirish;
- uzlusiz ta`lim tizimining bo`g`inlarida Mutaxassislik fanlarini o`qitish metodikasi fanini o`ziga xos jihatlarini etkazish;
- kadrlar tayyorlash milliy dasturini, ta`lim jarayonining davriylik qonuniyatini jismoniy tarbiya tizimi bilan umumiylilik xosil qilish qonuniyatlarini o`rgatish;
- zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ulardan foydalanish, interfaol usullarning asosiy ko`rinishlari va ularni qo`llash, jismoniy madaniyat ta`lim fanlaridan darsdan tashqari ishlarni tashkil etish olib borish borasida bilim va malakalar berish;
- jismoniy madaniyat fanlarida tajriba orttirish va undan foydalanish malakalariga ega qilish;
- kasbiy ijodiy tajribalarni targ`ibot qilish, o`rgatish xamda magistrlarda o`z kasbiga bo`lgan e`tiqodini oshirish.
- kasbiy ijodiy tajribalardan foydalanish qoidalarini va zamonaviy pedagogik texnologiyalar joriy qilish bo`yicha bilim va malakalar bilan quollantirish.

Jismoniy tarbiya o`qituvchisi va murabbiy ish faoliyatları bosqichlari bilan, jismoniy tarbiya va sport jarayonida tarbiyalash, jismoniy tarbiya mashg`ulotlarida umumrivojlantiruvchi mashqlardan, umumiylilik va maxsus mashqlardan foydalanish jarayonida sport turlari bo`yicha nazariy bilim, ko`nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

### **Fan bo`yicha magistrlarning bilim, ko`nikma va malakalariga qo`yiladigan talablar**

“Mutaxassislik fanlarini o`qitish metodikasi” o`quv fanini o`zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida magistr:

- kasbga oid fanlar (gimnastika, engil atletika, sport va harakatli o`yinlar, suzish, milliy kurash turlari va boshqalar) ni oliv ta`lim, o`ita maxsus ta`lim muassasalarida o`qitishning asosiy printsiplari va xususiyatlari;
- mashg`ulotlarni o`tishning asosiy shakl va metodlari hamda uning samaradorligini oshirishning o`ziga xosligi;
- talabalarning mustaqil ta`limi va mustaqil ishlarini tashkil etish shakl va metodlari;
- talabalar, o`quvchilar o`quv faoliyatlarini, jismoniy tayyorgarligini, harakat faolligini oshirish metodlari **haqidabilimga ega bo`lishi**;
- mutaxassislik fanlarini o`qitish printsiplari;
- o`quv jarayonini tashkil etishda ta`lim oluvchilarga ta`limiy, tarbiyaviy va sog`lomlashtiruvchi vazifalarini samarali amalga oshirish metodlari;
- mashg`ulotlar turlarini o`tkazish va nazorat qilishning faol shakllarini **haqida ko`nikmalarga ega bo`lishi kerak**.
- mashg`ulot rejasini tuzish va ma`ruza matnini tayyorlash;

- talabalarning bilimi va mustaqil ta`limini nazorat qilishning tashkiliy va o`quv-metodik ta`minoti;
- o`quv yil, semestr bo`yicha o`quv ishlarini tashkil etilishini rejalashtirish;
- kurs ishlariga dolzARB mavzularni tanlash va rahbarlik qilish;
- o`quv jarayonida ta`limning texnik vositalari va kompyuter texnikasini qo`llash;
- mutaxassislik fanlarining muayyan o`quv-metodik materiallarini ishlab chiqish;
- jismoniy tarbiya o`qituvchisi va murabbiy ish faoliyatlari bosqichlari bilan, jismoniy tarbiya va sport jarayonida tarbiyalash, jismoniy tarbiya mashg`ulotlarida umumrivojlaniruvchi mashqlardan, umumiylar maxsus mashqlardan foydalanish jarayonida sport turlari bo`yicha nazariy bilim hamda ***malakalarga ega bo`lishi kerak.***

### **Fanning o`quv rejasidagi boshqa fanlar bilan o`zaro bog`liqligi va uslubiy jihatidan uzviyligi**

«Mutaxassislik fanlarini o`qitish metodikasi» fani o`z mohiyatiga ko`ra mutaxassislik bo`yicha magistrlar tayyorlash o`quv rejasida ko`rsatilgan fanlar bilan uzviy bog`langan bo`lib, u magistrni kelajakdagi ta`lim jarayoniga tayyorlashga xizmat qiladi. Mazkur fan “Ilmiy tadqiqot metodologiyasi”, «Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat», “Jismoniy tarbiya va sport nazariyasi va metodologiyasi”, “Jismoniy tarbiya va sport faoliyatida ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil qilish”, “Jismoniy rivojlanishni nazorat qilish va sport tibbiyoti”, “Jismoniy tarbiya va sportda menejment hamda marketing” kabi fanlar bilan o`zaro bog`langan holda uzviy ketma-ketlikda olib boriladi.

### **Fanning ta`limdagi o`rni**

Jismoniy madaniyat ta`lim tizimida “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” dan kelib chiqadigan vazifalar, fan, texnika va texnologik taraqqiyotining bugungi darjasini bilan bo`lajak Jismoniy madaniyat sohasidagi pedagoglarning kasbiy tayyoragarligi sifatini takomillashtirish, soha bo`yicha uzlusiz ta`lim tizimi bo`g`inlarini malakali kadrlar bilan ta`minlash, o`quv-tarbiyaviy jarayon sifatini xalqaro andozalar darajasiga ko`tarish, talimning yangi printsiplari uslublarini, ilg`or pedagogik va zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy qilish, yoshlarni milliy tiklanish mafkurasi asosida tarbiyalash va umuminsoniy qadriyatlarni anglatish, Vatanga muhabbat, mustaqillik g`oyasiga sadoqat ruhida o`qitish va tarbiyalash, zamonaviy xorijiy o`quv markazlarida keyingi talim uchun sharoit yaratish, xorijiy mutaxassislar bilan raqobatdosh yuqori malakali jismoniy madaniyat bo`yicha kadrlar tayyorlash.

## **Fanni o`qitishda foydalaniladigan zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar**

«Mutaxassislik fanlarini o`qitish metodikasi» fanini o`qitish jarayonida magistrlar faoliyatini tashkil etish bo`yicha ishning jamoaviy, guruhli, kichik guruhli va individual shakllaridan foydalaniladi. Mashg`ulotlarni olib borishda ma`ruza, hikoya, suhbat, tushuntirish, ko`rsatish, mashq qilish, amaliy ish bajarish, muammoli va mustaqil ish bajarish kabi uslublar qo`llaniladi. Interfaol uslublardan “Klaster”, “Echim daraxti”, “BBB”, “Blits uyin”, “Aqliy xujum”, “Muammoli vaziyat”, “Toifalar jadvali”, “Insert”, “Pinbord”, “Venna diagrammasi” shuningdek “Keys-stadi” kabilarni qo`llash tavsiya etiladi.

### **Asosiy qism Fanning nazariy mashg`ulotlari mazmuni**

#### **1-Modul Mutaxassislik fanlarini o`qitish metodikasi predmetining maqsad va vazifalari.**

Jismoniy madaniyat magistratura mutaxassisligida mutaxassislik fanlarini o`qitish metodikasi fanining maqsad va vazifalari. Mutaxassislik fanlarini o`qitish metodikasi faniga kirish.

#### **2-Modul Mutaxassislik fanlari bo`yicha (gimnastika, yengil atletika, sport va harakatli o`yinlar, milliy kurash turlari va boshqalar) ma`ruza o`qish, laboratoriya, seminar, amaliy va boshqa turdagи mashg`ulotlarni o`tish metodikasi.**

Umumiy o`rta ta`lim, akademik litsey, kasb-hunar kollej va oliy ta`lim muassasalarida gimnastika, yengil atletika, harakatli o`yinlar, sport o`yinlari, milliy kurash turlari bo`yicha ma`ruza, seminar va amaliy mashg`ulotlarni mutaxassislik xususiyatidan kelib chiqqan holda tashkil qilish va o`tkazish metodikasi bo`yicha nazariy bilim va malakalarga ega qilish.

#### **3-Modul Mutaxassislik fanlari bo`yicha o`quv faoliyatining turlarini o`quv-metodik jihatdan ta`minlash.**

Ta`lim muassasalarida mutaxassislik fanlari bo`yicha o`quv faoliyatining turlari(gimnastika, yengil atletika, harakatli o`yinlar, sport o`yinlari, milliy kurash turlari va boshqalar) ni o`quv-metodik jihatdan ta`minlashda zamonaviy sport anjomlari, buyumlari va o`quv adabiyotlarini yaratish. Standart va nostandart sport anjomlaridan foydalanish metodikasini o`rgatish bo`yicha nazariy bilim va malakalarga ega qilish.

#### **4-Modul Talabalar mustaqil ishlarining o`quv-metodik ta`minoti, bilimlarning reyting nazoratini rejalshtirish, tashkil etish va o`quv-metodik jihatdan ta`minlash.**

O`quvchi-yoshlar va talabalarni mustaqil ta`limini tashkil qilish hamda o`tkazish shakllarini ishlab chiqish, ularni o`quv-metodik jihatdan ta`minlash,

o`quvchi-yoshlar va talabalar bilimini nazorat qilishning reyting tizimi tashkil qilish hamda rejalashtirish bo`yicha faoliyatini yo`lga qo`yish bo`yicha nazariy bilim va malakalarga ega qilish.

### **5-Modul O`quv yuklamalari, o`quv-metodik, ilmiy va tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish.**

Ta`lim muassasalarida o`quv yuklamalarini hisoblash, o`qituvchilarni shaxsiy ish rejasini tuzish, har bir ta`lim muassassida belgilangan me`yorlarga muvofiq o`quv-metodik, ilmiy va tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish hamda ularga ajratilgan ish hajmini belgilash bo`yicha nazariy bilim va malakalarga ega qilish.

### **6-Modul Mutaxassislik fanlarining ishchi o`quv rejasi va ishchi o`quv dasturlarini ishlab chiqish.**

Ta`lim muassasalarida mutaxassislik fanlari bo`yicha ishchi o`quv rejalari, ishchi o`quv dasturlar, o`quv-uslubiy majmualari (gimnastika, yengil atletika, harakatli o`yinlar, sport o`yinlari, milliy kurash turlari va boshqalar) ni ishlab chiqish va ularni o`quv-metodik jihatdan ta`minlash bo`yicha nazariy bilim va malakalarga ega qilish.

### **7-Modul Kurs ishlari va bitiruv malakaviy ishlari bajarilishining tashkiliy va ilmiy-metodik ta`minoti.**

Kasb-hunar kollej va oliy ta`lim muassasalarida mutaxassislik fanlari (gimnastika, yengil atletika, harakatli o`yinlar, sport o`yinlari, milliy kurash turlari) bo`yicha kurs ishlari va bitiruv malakaviy ishlarini bajarish metodikasi, ularni tashkiliy va ilmiy-metodik ta`minoti bo`yicha nazariy bilim hamda malakalarga ega qilish.

### **8-Modul Oliy va o`rta maxsus ta`lim muassasalarida mutaxassislik fanlarini o`qitish xususiyatlari.**

Oliy va o`rta maxsus ta`lim muassasalarida mutaxassislik fanlarini o`qitish xususiyatlari (gimnastika, yengil atletika, harakatli o`yinlar, sport o`yinlari, milliy kurash turlari va boshqalar) bo`yicha nazariy bilim hamda malakalarga ega qilish.

### **Seminar mashg`ulotlarini tashkil etish bo`yicha ko`rsatma va tavsiyalar**

«Mutaxassislik fanlarini o`qitish metodikasi» fanini amaliy mashg`ulotlarini o`rganish jarayonida muammoli ma`ruzalar o`tkazish, interfaol metodlar, vaziyatli masalalarni qo`llash, shuningdek axborot texnologiyalari qo`llashdan tashqari ta`lim muassasalarining ilg`or tajribalarni o`rganish orqali o`rgatish maqsadga muvofiq bo`ladi. «Mutaxassislik fanlarini o`qitish metodikasi» fani oliy ta`limning Jismoniy madaniyat magistratura mutaxassisliklari uchun I kursda o`qitiladi.

### **Seminar mashg`ulotlarining mavzulari, mazmuni**

«Ta`lim to`g`risida» gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ni amalga

tatbiq etish jarayonida «Mutaxassislik fanlarini o`qitish metodikasi» fanining o`rni, uning predmeti, maqsad va vazifalari. Ta`lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari. Mutaxassislik fanlarini o`qitish metodikasi fan sifatida. Mutaxassislik fanlarini o`qitish metodikasi fanining tadqiqot metodlari.

«Mutaxassislik fanlarini o`qitish metodikasi» fanidan ta`lim berishning didaktik tamoyillari to`g`risidagi tushunchalar. Ta`lim va tarbiyaning birligi; onglilik va faollik; ilmiylik va tizimlilik; nazariya va amaliyatning bog`liqligi; ko`rgazmalilik; yosh va individual xususiyatlarning e`tiborga olinishi; bilimlarni o`zlashtirishni puxtaligi va mustakamlab borilishi. Shaxs bilim ko`nikma va malakalarini shakllantirish jarayonining xususiyatlari.

Seminar mashg`ulotlarda tavsiya etiladigan mavzulari:

1. Mutaxassislik fanlarini o`qitish metodikasi predmetining maqsad va vazifalari.

2. Mutaxassislik fanlari bo`yicha (gimnastika, yengil atletika, sport va harakatli o`yinlar, suzish, milliy kurash turlari va boshqalar) ma`ruza o`qish, laboratoriya, seminar, amaliy va boshqa turdagи mashg`ulotlarni o`tish metodikasi.

3. Mutaxassislik fanlari bo`yicha o`quv faoliyatining turlarini o`quv-metodik jihatdan ta`minlash.

4. Talabalar mustaqil ishlarining o`quv-metodik ta`minoti, bilimlarning reyting nazoratini rejalashtirish, tashkil etish va o`quv-metodik jihatdan ta`minlash.

5. O`quv yuklamalari, o`quv-metodik, ilmiy va tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish.

6. Mutaxassislik fanlarining ishchi o`quv rejasi va ishchi o`quv dasturlarini ishlab chiqish.

7. Kurs ishlari va bitiruv malakaviy ishlari bajarilishining tashkiliy va ilmiy-metodik ta`minoti.

8. Oliy va o`rta maxsus ta`lim muassasalarida mutaxassislik fanlarini o`qitish xususiyatlari.

Seminar mashg`ulotlarni tashkil etish bo`yicha kafedra professor o`qituvchilari tomonidan ko`rsatma va tavsiyalar ishlab chiqildi. Unda talabalar asosiy ma`ruza mavzulari bo`yichaolgan bilim va ko`nikmalarini amaliy mashg`ulotlar orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o`quv qo`llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, sport musobaqalarida qatnashib, o`yinlarni tashkil qilish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalarning bilimini oshirish, mavzular bo`yicha ko`rgazmali qurollar tayyorlash, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda mutaxassislik fanlarini o`qitish metodikasi fanining tajriba metodlaridan foydalanish va boshqalar tavsiya etiladi.

### **Mustaqil ta`limni tashkil etishning shakli va mazmuni**

Magistr mustaqil ta`lim jarayonida mazkur fanning muayyan o`ziga xosliklarini hisobga olgan holda quyidagi mavzularni mustaqil o`rganishi tavsiya etiladi:

- darslik va o`quv qo`llanmalar bo`yicha fan boblari va mavzularini o`rganish;

- tarqatma materiallar ma`ruzalar qismini o`zlashtirish;
- sport turlari texnikasi usullarini bajarishning nazariy asoslarini o`rganish;
- maxsus adabiyotlar bo`yicha mavzular ustida ishslash;
- talabaning o`quv – ilmiy – tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog`liq bo`lgan fanlar bo`limlari va mavzularini chuqur o`rganish;
- faol va muammoli o`qitish uslubidan foydalaniladigan o`quv mashg`ulotlari;
- masofaviy ta`lim.

Tavsiya etiladigan mustaqil ta`limning mavzulari:

1. Mutaxassislik fanlarini o`qitish metodikasi predmetining maqsad va vazifalari.
2. Mutaxassislik fanlari bo`yicha (gimnastika, yengil atletika, sport va harakatlari o`yinlar, suzish, milliy kurash turlari va boshqalar) ma`ruza o`qish, laboratoriya, seminar, amaliy va boshqa turdagи mashg`ulotlarni o`tish metodikasi.
3. Mutaxassislik fanlari bo`yicha o`quv faoliyatining turlarini o`quv-metodik jihatdan ta`minlash.
4. Talabalar mustaqil ishlarining o`quv-metodik ta`minoti, bilimlarning reyting nazoratini rejalashtirish, tashkil etish va o`quv-metodik jihatdan ta`minlash.
5. O`quv yuklamalari, o`quv-metodik, ilmiy va tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish.
6. Mutaxassislik fanlarining ishchi o`quv rejasi va ishchi o`quv dasturlarini ishlab chiqish.
7. Kurs ishlari va bitiruv malakaviy ishlari bajarilishining tashkiliy va ilmiy-metodik ta`minoti.
8. Oliy va o`rta maxsus ta`lim muassasalarida mutaxassislik fanlarini o`qitish xususiyatlari.

### **Dasturning informatsion-uslubiy ta`minoti**

#### **Didaktik vositalar**

- 1. Jihozlar va uskunalar, moslamalar:** o`quv bazasi, joy maketlari, plakatlar, elektron doska –Hitachi, LCD monitor, elektron ko`rsatkich.
- 2. Video audio uskunalar:** video, audiomagnitofon, ovoz kuchaytirgich.
- 3. Kompyuter va multimediali vositalar:** kompyuter, Dell tipidagi proektor, DVD- diskovod, Web- kamera, videoproektor (glazok).

#### **Foydalaniladigan adabiyotlar ro`yxati**

##### **Asosiy adabiyotlar:**

Nº	Muallif	Adabiyot nomi	Adabiyot turi	Nashr yili
1	L.R.Ayrapetyants	Voleybol	darslik	Tashkent 2012 y O`zDJTI nashriyoti
2	R.I.Nurimov	Futbol	darslik	Tashkent 2005 y. O`zDJTI nashriyoti
3	M.S.Olimov	Yengil atletika	darslik	Tashkent 2018y Navruz nashriyoti

4	Salomov R.S.	Sport mashg'ulotlarining nazariy asoslari	o'quv qo'llanma	2005 y. O'zDJTI nashriyoti
5	Goncharova O.V.	Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish	o'quv qo'llanma	T.: O'zDJTI nashriyoti 2005 y.
6	M.N.Umarov	Gimnastika	darslik	T.:O'zDJTI nashriyoti 2015 y.

### Qo'shimcha adabiyotlar

- Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. Тошкент “Ўзбекистон” – 2017 й.
- Ш.Мирзиёев Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. “Ўзбекистон” НМИУ, 2016 й.
- Ш.Мирзиёев Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фараёнлигининг гарови. “Ўзбекистон” НМИУ, 2016 й.
- 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Харакатлар стратегияси. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947 сонли Фармони.
- Абдуллаев А., Хонкелдиев Ш.Х. “Жисмоний тарбия назарияси ва методикаси” ўқув қўлланма Т.: ЎзДЖТИ нашриёти 2005 й.
- Пулатов А.А., Исраилов Ш.Х. Волейбол назарияси ва услубияти. //Ўқув қўлланма. Т.: 2007. – 148 б.
- Маҳкамджанов К.М., Туленова Х.Б. “Жисмоний тарбия назарияси ва методикаси” ўқув қўлланма Т.: ТДПУ нашриёти 2001-2002 й.

### Elektron ta`lim resurslari

- [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
- [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
- [www.lex.uz](http://www.lex.uz)**
- [www.bilim.uz](http://www.bilim.uz)**
- [www.gov.uz](http://www.gov.uz)**

